



Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi



**2023- YIL
YANVAR-IYUN
OYLARIDA
ASOSIY
KAPITALGA
INVESTITSIYALAR**







2023- yilning yanvar-iyun oylarida 4703,6 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʼzlashtirilib, ularning 19,9 % i yoki 939,8 mlrd. soʻmi jalb etilgan mablagʼlar hisobidan moliyalashtirilgan boʼlsa, korxona, tashkilot va aholining oʼz mablagʼlari hisobidan 41,3 % yoki 1940,5 trln. soʻm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022- yildagi ulushiga nisbatan 1,8 % punktga kamayib, 23,4 % ni yoki 1098,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3604,7 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalarning 76,6 % investitsiyalari oʼzlashtirilib, 2022- yildagi koʼrsatkichga nisbatan 1,8 % punktga koʼpaydi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm



2023- yilning yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1264,0 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 26,9 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 14,4 % i yoki 676,5 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 195,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % punktga ko'payib, 4,1% ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

| | Investitsiyalar hajmi, mird. so'm | O'sish sur'ati, % da | O'zbekiston Respublikadagi ulushi, % da |
|--------------------------------------|--|-----------------------------|--|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 4703,6 | 104,2 | 100,0 |
| tumanlar: | | | |
| Amudaryo | 238,7 | 90,4 | 5,1 |
| Beruniy | 179,8 | 62,9 | 3,8 |
| Bo'zatov | 45,5 | 101,0 | 1,0 |
| Qorao'zak | 694,8 | 129,1 | 14,8 |
| Kegeyli | 57,7 | 86,3 | 1,2 |
| Qo'ng'iroq | 538,2 | 98,3 | 11,4 |
| Qonliko'l | 82,6 | 129,4 | 1,8 |
| Mo'ynoq | 633,2 | 110,4 | 13,5 |
| Nukus | 162,7 | 140,0 | 3,5 |
| Taxiatosh | 99,2 | 82,3 | 2,1 |
| Taxtako'pir | 27,1 | 89,4 | 0,6 |
| To'rtko'l | 323,2 | 117,7 | 6,9 |
| Xo'jayli | 130,2 | 112,3 | 2,8 |
| Chimboy | 113,0 | 91,5 | 2,4 |
| Shumanay | 32,3 | 68,1 | 0,7 |
| Ellikqa'l'a | 294,9 | 182,5 | 6,2 |
| Nukus sh. | 1050,5 | 92,1 | 22,2 |

Shuningdek, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar 2022- yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga ko'paydi. Bunday yuqori o'sishni 2022-2027- yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o'zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) bo'yicha dastur, 2020-2030- yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish va boshqa investitsiya loyihalari bilan izohlash mumkin.

Qurilish-montaj ishlari



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlariiga 2727,7 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 58,0 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna, inventarlar bo'yicha 1707,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 36,3 %) va boshqa xarajatlarga 268,9 mlrd. so'm (5,7 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qonliko'l tumanida kuzatildi – 80,8 % yoki 66,7 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Taxiatosh tumanida kuzatilib, 36,9 % ni yoki 36,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qorao'zak tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 59,9 % yoki 416,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyalash va texnik qayta qurallantirishga yo'naltirildi.

Yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2272,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 48,3 % ini tashkil etdi.


Kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyalash uchun yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 2022-2027- yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o'zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar natijasida Qorao'zak tumanida kuzatilib, u 90,8 % ni tashkil etdi.

Hudular bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish ishlaringning ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar 1520,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 32,3 % ini tashkil etdi. Qolgan 19,4 %, ya'ni 910,1 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


**Hududlar bo'yicha yangi qurilish ishlariga investitsiyalar ulushi,
jami investitsiyalarga nisbatan, % da**




**Hududlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan
investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da**




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSIYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSIYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishslash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami

moliyalashtirish manbalari hisobidan 1142,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 24,3 % i o'zlashtirilgan.

Qayta ishslash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH
86,1 mlrd. so'm
Ulushi 1,8 %

KOKS VA NEFTNI QAYTA ISHLASH MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH
799,2 mlrd. so'm
ulushi 17,0 %

KIMYO MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH
116,2 mlrd. so'm
ulushi 2,5 %

Tashish va saqlashda jami 695,9 mlrd.so'm yoki respublika bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 14,8 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 7,9 % i yoki 369,7 mlrd. so'mi quruqlikdagi quvur transporti sohasiga tegishlidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so‘m

| | Jami | To‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalar | O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar | Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar |
|--------------------------------------|---------------|--|--|--|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 1823,3 | 195,1 | 537,1 | 1091,1 |
| tumanlar: | | | | |
| Amudaryo | 61,1 | - | 51,1 | 10,0 |
| Beruniy | 2,8 | - | - | 2,8 |
| Bo‘zatov | 2,2 | - | - | 2,2 |
| Qorao‘zak | 584,2 | 17,1 | - | 567,1 |
| Kegeyli | 5,4 | 5,4 | - | - |
| Qo‘ng‘iroq | 331,7 | 125,9 | 203,6 | 2,2 |
| Qonliko‘l | 0,3 | - | - | 0,3 |
| Mo‘ynoq | 365,9 | - | - | 365,9 |
| Nukus | 53,1 | - | 46,3 | 6,8 |
| Taxiatosh | 2,9 | - | - | 2,9 |
| Taxtako‘pir | 1,1 | - | - | 1,1 |
| To‘rtko‘l | 98,2 | 6,7 | 46,3 | 45,2 |
| Xo‘jayli | 1,9 | - | - | 1,9 |
| Chimboy | 31,4 | 7,7 | - | 23,7 |
| Shumanay | 0,0 | - | - | - |
| Ellikqa‘la | 148,3 | - | 141,6 | 6,7 |
| Nukus sh. | 132,8 | 32,3 | 48,2 | 52,3 |

2023- yil yanvar-iyun oylarida 1823,3 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 38,8 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1033,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 790,3 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 1286,2 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 537,1 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(61) 222-75-91**